KASBIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

KASBIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

SHARAPOV ILXOM BAXODIR O‘G‘LI

KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI O‘QUVCHILARINING MAXSUS KOMPETENSIYALARINI WORLDSKILLS TALABLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI (Oshpaz kasbi misolida)

13.00.05 – Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K 377.091.3:641.5

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation on pedagogical sciences

Sharapov Ilxom Baxodir o‘g‘li
Kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirish metodikasi (Oshpaz kasbi misolida) 3

Шарапов Илхом Баходир угли
Методика развития специальных компетенций учащихся профессиональных образовательных организаций на основе требований WorldSkills (на примере профессии «Повар») 25

Sharapov Ilkhom Bakhodir ugli
Methods for the development of special competencies of students at vocational education institutions based on WorldSkills requirements(On the example of the Profession “Cook”) 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 55

KASBIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

KASBIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

SHARAPOV ILXOM BAXODIR O‘G‘LI

KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI O‘QUVCHILARINING MAXSUS KOMPETENSIYALARINI WORLDSKILLS TALABLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI (Oshpaz kasbi misolida)

13.00.05 – Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6828 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Kasbiy ta'lim agentligi huzuridagi Kasbiy ta'limni rivojlantirish institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ipitvet.uz) da va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xudayberdiyev Zayniddin Yavkachevich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**To'xtayeva Zebo Sharifovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Sharipova Dilara Djumaniyozovna pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "7"- 11 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy ko'chasi, 96-uy). Tel.: (+998 71)246-92-17; faks: (+998 71)246-90-37; e-mail: kasbiytalim@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Kasbiy ta'limni rivojlantirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (159 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel.: (+998 71)246-92-17; faks: (+998 71)246-90-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "22"- 10 kuni tarqatildi.
(2026-yil "22"- 10 dagi 10 raqamli reyestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI * KASBIY TA'LIM AGENTLIGI HUZURIDAGI KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI *

R.X.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash raisi, p.f.d., professor, akademik

S.Y.Ashurova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash kotibi, p.f.d.(DSc), professor

N.Sh.Kadirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d.(DSc), professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot texnologiyalari va raqamli transformatsiyaning jadal rivojlanishi, shuningdek, sanoat rivojlanishining 4-davri talablari ta’lim va ishlab chiqarish sohalariga chuqur kirib borib, kadrlar tayyorlash tizimini kompetensiyaviy talablar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu ommaviy tendensiya kasbiy va maxsus kompetensiyalarga, moslashuvchanlikka va uzluksiz kasbiy rivojlanishga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro WorldSkills harakati kasbiy ta’lim talablarini takomillashtirish, sanoat talablariga mos ravishda kasbiy va maxsus kompetensiyalarni rivojlantirish hamda global mehnat bozori uchun raqobatbardosh ishchi kuchini tayyorlashning keng e’tirof etilayotgan va samarali mexanizmi sifatida maydonga chiqdi.

Xorijiy tajribalarga ko‘ra, WorldSkills International – global tashkilot sifatida unga a’zo bo‘lgan 89 dan ortiq mamlakatda kasbiy, texnik va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishidagi kasbiy tayyorgarlikni faol ravishda rivojlantiradi. Har ikki yilda bir marta o‘tkaziladigan xalqaro WorldSkills tanlovlari kasbiy ta’limning eng yaxshi amaliyotlarini aks ettiruvchi, dunyo miqyosidagi muhim tadbir hisoblanadi. WorldSkills kasbiy standartlari, talablari ISO (International Standart Organisation)[1], ISCO (International Standart Classification of Occupations)[2], ESCO (European skills, Competences, Qualifications and Occupations)[3], O*Net (Occupational Information Network)[4] hamda HACCP (Hazard Analysis and Critical Control Points)[5] kabi xalqaro kasbiy standartlarga mos keladi hamda global miqyosda o‘rta darajadagi ish o‘rinlari uchun zarur bo‘lgan ixtisoslashgan, texnik va umumiy ko‘nikmalarni belgilab beradi, bu esa malakali mutaxassis egallashi kerak bo‘lgan muhim bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni aniqlaydi. Bu talablar xizmat ko‘rsatish sohasidan tortib, yuqori texnologik va rivojlanayotgan sohalargacha bo‘lgan keng qamrovli kasblarni o‘z ichiga oladi. WorldSkills metodologiyasi taqqoslanadigan baholashni ta’minlash orqali kasbiy ta’lim natijalarining sifatini oshirishga yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu talablar kasbiy ta’limning jozibadorligini oshiradi va tizimda muhim islohot hamda konseptual yangilikni ifodalaydi. Global miqyosda oshpaz kasbi bo‘yicha WorldSkills harakati kasbiy mahorat va ko‘nikmalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan global tarmoq sifatida texnik-amaliy ko‘nikmalar, gigiyena va xavfsizlikka rioya qilish, vaqtni boshqarish, ijodkorlik, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, jamoaviy ishlash kabi kasbiy va maxsus kompetensiyalarni, o‘z-o‘zini faollashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish va baholash, hayot davomida ta’lim olishga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim texnologiyalari vositasida ularda mustaqil ta’lim olishni, xorijiy til(lar)ni o‘zlashtirishni, faoliyatini tanqidiy tahlil etish va taom sifatini nazorat qilish, doimiy ravishda yangi g‘oya, texnologiyalar hamda retseptlarni izlash asosida kasbiy faoliyatda uzluksiz axborot-kommunikativ va maxsus

[1] https://www.iso.org/ru/standards.html
[2] https://ilostat.ilo.org/methods/
[3] https://esco.ec.europa.eu/en/classification/occupation_main
[4] https://www.onetonline.org/crosswalk/OOH/
[5] https://www.fao.org/good-hygiene-practices-haccp-toolbox/haccp/introduction-to-haccp/ru

kompetensiyalarni rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda kasbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston 2020-yil 18-yanvarda WorldSkills International tashkilotiga 83-a’zo sifatida rasman qo‘shildi. Shundan so‘ng, hukumat WorldSkills standartlarini joriy etish va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh ishchi kuchini tayyorlashga yo‘naltirilgan qator me’yoriy-huquqiy xujjatlarni qabul qildi. Mamlakatning kasbiy ta’lim islohotlari kasbiy ta’limni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda tashkil etish, ta’lim tizimining barcha bosqichlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va global miqyosda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga ustuvor ahamiyat qaratadi. WorldSkills metodologiyasini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish zarur bo‘lgan kasbiy va maxsus kompetensiyalarni shakllantirishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-sonli, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli Farmoni hamda 2025-yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-sonli Qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 394-sonli Qarorida va mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan muhim vazifalarni muayyan darajada amalga oshirishda xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavjud ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning kasbiy va maxsus kompetensiyasini rivojlantirish, amaliy ta’lim jarayoni unumdorligini oshirish va global malaka talablari asosida kasbiy ta’lim metodik mazmunini optimallashtirish yo‘nalishida qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar e’lon qilingan.

Jumladan, o‘zbek olimlardan R.X.Djurayev, Sh.E.Qurbonov, X.F.Rashidov, A.R.Xodjabayev, N.A.Muslimov, J.G‘.Yo‘ldoshev, Q.T.Olimov, S.Yu.Ashurova, D.O.Ximmataliyev, J.A.Hamidov, M.M.Xolmuxamedov, N.N.Karimova, R.K.Choriyev, B.B.Ergashev, O.B.Sarmonov[6] kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari

[6]Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. // Ped. fanl. d-ri ... dis. – T., 2007. 249 b.; Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integrasiyasi. // Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) diss. avtoref. – T., 2018. 92 b.; Xolmuxamedov M.M. Professional ta’lim mazmunini ta’lim natijalari (Learning outcomes) asosida modernizatsiyalash. // Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2022. 202 b.; Choriyev R.K. Kasb ta’limi

kasbiy tayyorgarlikning mundarijaga oid mohiyati, didaktik vositalar seleksiyasi, kompetensiyaviy paradigmaga tayanilgan yondashuv va o‘quv-tarbiya tizimining sifat ko‘rsatkichlarini modernizatsiyalash masalalariga bag‘ishlangan.

Kasbiy ta’limda “Kompetensiya”, “Kompetentlilik”, “Tayanch kompetensiyalar” kabi tushunchalarning nazariy-metodologik asosi, ularni modellashtirish, diagnostika qilish va bosqichma-bosqich rivojlantirish masalalari qator xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Bunda V.I.Baydenko, A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya, O.N.Krilova, T.I.Shukshina, G.M.Kodjaspirova, M.A.Choshanov, M.N.Skatkin, V.P.Bespalko[7] kabi olimlarning ishlari muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda WorldSkills metodologiyasi doirasida kasbiy kompetensiyalarni aniq baholash, ularni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish va mezonlar asosida metodikalar ishlab chiqish masalalari dolzarb mavzuga aylangan. Xususan, Ali M.Al Marzouqi, N.W.Leigh, S.Rauner, D.Keep, G.McGrath, M.Tennosaar[8] kabi mutaxassislar tomonidan WorldSkills texnik standartlari va talablari asosida pedagogik yondashuvlar, baholash mezonlari va kompetensiyaviy rivojlanish mexanizmlari o‘rganilgan.

Shunga qaramay, mavjud ilmiy izlanishlar orasida aynan WorldSkills talablari asosida o‘quvchilarning oshpaz kasbi bo‘yicha maxsus kompetensiyalarini shakllantirish, baholash va rivojlantirishga qaratilgan, amaliy modellarni o‘z ichiga olgan metodik tadqiqotlar yetarli emas. Shu sababli, ushbu dissertatsiyada ilgari surilgan muammo WorldSkills talablariga asoslangan holda o‘quvchilarning oshpazlik maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish nafaqat dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga, balki milliy ta’lim tizimining xalqaro talab va mezonlariga integratsiyasini jadallashtirish imkoniyatiga ham ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim tashkilotsining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot ishi Professional ta’limni rivojlantirish institutining ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi asosida Innovatsion rivojlanish agentligi bilan 2024-yil 1-iyulda tuzilgan IL-18-722212979-sonli shartnoma asosida moliyalashtirilgan “WorldSkills standartlarini milliy professional ta’lim tizimiga joriy etishning axborot-ta’lim

---

mutaxassislarini dual tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. (Texnika oliy ta’lim muassasalarida “Kasb ta’limi” yo‘nalishi misolida). // Ped. fan. doktopi (DSc) dis. – Toshkent: TIQXMMI, 2020. 245 b.; Ergashev B. B. Professional ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik strategiyasini loyihalashtirish. // Ped. fan. doktori (DSc) ... dis. – Toshkent: NamMTI, 2022. 254 b.; Sarmonov O.B. Ishlab chiqarish ta’limi ustalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. // Ped. fan. falsafa doktori (PhD) …dis. – Toshkent, 2022. 149 b.

[7]Байденко В.И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования (методологические и методические вопросы). // Методическое пособие Издание 2-е. – М., 2005. 114 с.; Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: «Просвещение», 1995. – 336 с.; Скаткин М.Н., Проблемы современной дидактики. – М.: Педагогика, 1984. 95 с.; Чошанов М.А. Дидактические конструкции гибкой технологии обучения. // Ж.: Педагогика, 1997. № 2.

[8]Al Marzouqi A.M. Skills competitions and their impact on vocational education in the UAE. // Doctor of Philosophy (PhD), Ulster university. – UAE, 2023. P. 146; Leigh N.W. Skills competitions: a winning formula for enhancing the quality of vocational education?. A thesis submitted to The University of Birmingham for the degree of Doctor of Education: Leaders and Leadership in Education, 2013. P. 238; Tennosaar M. Developing a Digital Training Platform Concept for International Vocational Skills Competitions. // Haaga-Helia University of Applied Sciences Master of Business Administration, Digital Business Opportunities, 2024. P. 64.

portalini yaratish” mavzusidagi ilmiy (innovatsion) loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kasbiy ta’lim tashkilotlarida oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini “WorldSkills” talablari asosida rivojlantirishning metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirishning kasbiy-pedagogik shart-sharoitlarini tahlil qilish va aniqlashtirish;

oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modelini ishlab chiqish va takomillashtirish;

oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirish metodikasini mualliflik metodlari majmuasi asosida takomillashtirish;

oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini WorldSkills mezonlariga muvofiq baholashga xizmat qiluvchi diagnostik-baholash indikatorlari majmuasining ilmiy-metodologik asoslarini ishlab chiqish hamda tajriba-sinov ishlari orqali samaradorligini tasdiqlash.

Tadqiqot obyekti kasbiy ta’lim tashkilotlari oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarining maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirish jarayoni bo‘lib, unda Qibray tuman politexnikumi, Toshkent tuman 2-son politexnikumi, Sergeli tuman politexnikumi, Andijon shahar 5-son politexnikumidan jami – 358 nafar o‘quvchilar, shundan 181 nafari tajriba hamda 177 nafari nazorat guruhlarida ishtirok etdi.

Tadqiqot predmeti WorldSkills talablari asosida oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining mazmuni, shakli, metodi va vositalaridan iborat.

Tadqiqot usullari mavzuga oid ilmiy-nazariy manbalarni o‘rganish va tahlil qilish orqali umumlashtirishda, WorldSkills talablariga asoslangan maxsus kompetensiyalarni rivojlantirish modelini ishlab chiqishda, taklif etilgan metodikaning amaliyotda sinovdan o‘tkazishda, o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan ish olib borish orqali holatni aniqlashda hamda tajriba-sinov natijalarini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilishda tahlil va sintez, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, so‘rovnoma, suhbat, test va statistik tahlillardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirishning kasbiy-pedagogik shart-sharoitlari texnologik, innovatsion, gigiyenik, estetik, boshqaruv va jamoaviy ishlash funksional komponentlarining tarkibiy yaxlitligi hamda xalqaro kasbiy tanlovlarning motivatsion-didaktik salohiyati asosida aniqlashtirilgan;

oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modeli o‘quvchilarning intellektual-kognitiv va ijodiy-innovatsion salohiyatini kompleks rivojlantirish, individual va jamoaviy ta’lim trayektoriyalarini

uyg‘unlashtirish hamda WorldSkills mezonlari bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirish metodikasi KnowFlow (bilimlarni bosqichli transfer qilish), SkillFrame strategy (amaliy ko‘nikmalarni modulli shakllantirish), CognitiveChef approach (kasbiy tafakkurni refleksiv-kognitiv rivojlantirish) va TaskCraft (kasbiy vazifalarni loyihalash) mualliflik metodlari majmuasining didaktik uyg‘unligi asosida takomillashtirilgan;

oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini WorldSkills mezonlariga muvofiq baholashga xizmat qiluvchi ontologik-kognitiv, texnologik-faoliyatli, motivatsion-raqobatbardosh va refleksiv indikatorlar majmuasi formativ-kompetensiyaviy baholash paradigmasiga o‘tkazishning ilmiy-metodologik asosi sifatida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

“Oshpaz kasbi bo‘yicha WorldSkills tanloviga tayyorlash” nomli qisqa muddatli o‘quv kursi ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etildi. Ushbu o‘quv kursi o‘quvchilarni WorldSkills xalqaro hamda respublika kasbiy tanlovlariga tizimli va samarali tayyorlash maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning maxsus kompetensiyalarini xalqaro talab darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi;

WorldSkills talablari asosida “Innovatsion ta’lim metodlari asosida o‘quvchilarni kasbiy tanlovlarga tayyorlash” nomli uslubiy qo‘llanma hamda Vocational excellence: a WorldSkills – based methodological guide” nomli metodlar jamlanmasi ishlab chiqildi va joriy etildi. Mazkur uslubiy qo‘llanma o‘qituvchilarga WorldSkills kasbiy tanlovlari orqali o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion ta’lim metodlarini qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar va metodik yondashuvlarni taqdim etadi;

31010306 – Oshpaz kasbining amaldagi ta’lim dasturlari (Malaka talabi, o‘quv reja va fan dasturi) WorldSkills talablari singdirilgan holda takomillashtirildi;

oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash, ularning bilimlari va ko‘nikmalarini mustahkamlash, shuningdek, WorldSkills talablari asosida o‘zlashtirish darajasini baholash uchun mo‘ljallangan “ChefSkills” nomli interaktiv mobil ilova yaratildi va amaliyotga joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot mavzusiga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar, ilmiy-pedagogik manbalar, xalqaro tajribalar chuqur tahlil qilingan. Bu esa tadqiqot muammosini har tomonlama o‘rganish va asosli nazariy xulosalar chiqarishga zamin yaratgan. Ishlab chiqilgan metodika va pedagogik modelning samaradorligi amaliyotda sinovdan o‘tkazildi. Tajriba-sinov bosqichlari, ishtirokchilar tanlovi, nazorat va tajriba guruhlarning shakllantirilishi ilmiy-metodik talablar asosida amalga oshirilgan. Tajriba-sinov ishlari yakunida olingan ma’lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, pedagogik samaradorlikning ishonchliligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan. Olingan natijalar tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan, bu esa tadqiqot xulosalarining obyektivligi va asosliligini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati WorldSkills talablari asosida oshpaz kasbi bo‘yicha maxsus

kompetensiyalarning tarkibi va mazmuni, ularni rivojlantirishning metodik asoslari, kasbiy tanlovlarning motivatsion omil sifatidagi pedagogik ahamiyati, o‘quvchilarda maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modeli hamda WorldSkills baholash mezonlarini integratsiya qilgan holda o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniq va obyektiv baholash imkonini beruvchi indikatorlarning takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari asosida WorldSkills talablari asosida oshpaz kasbi ta’lim dasturlari ishlab chiqilganligi, kasbiy tanlovlarni tashkil etish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilganligi hamda oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik ta’minotini yaratish texnologiyasining ishlab chiqilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kasbiy ta’lim tashkilotlarida oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirishning kasbiy-pedagogik shart-sharoitlarini funksional komponentlar va xalqaro kasbiy tanlovlarning motivatsion-didaktik salohiyati asosida aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalari 31010306 – Oshpaz kasbining amaldagi ta’lim dasturlari (malaka talabi, o‘quv reja va fan dasturi) mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-avgustdagi 316-sonli buyrug‘i). Natijada kasbiy ta’lim tashkilotlarida oshpaz kasbi bo‘yicha ta’lim dasturlari mazmunini WorldSkills xalqaro talablariga muvofiqlashtirish va o‘quv jarayonini zamonaviy mehnat bozori talablari asosida tashkil etish sifatini oshirishga xizmat qilgan;

oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modelini intellektual-kognitiv va ijodiy-innovatsion salohiyatini kompleks rivojlantirish hamda WorldSkills mezonlarini pedagogik-didaktik prinsiplar bilan integratsiyalash asosida amaliyotga tatbiq etishga oid takliflari asosida “Oshpaz kasbi bo‘yicha WorldSkills tanloviga tayyorlash” qisqa muddatli o‘quv kursining ta’lim dasturi ishlab chiqilgan va kasbiy ta’lim tashkilotlari amaliyotiga joriy etilgan (Kasbiy ta’limni rivojlantirish institutining “Xizmat ko‘rsatish sohasi yo‘nalishlari” bo‘yicha metodik birlashmasi majlisining 2024-yil 18-iyuldagi 5-sonli bayonnomasi hamda Ilmiy-pedagogik kengashi yig‘ilishining 2024-yil 4-sentyabrdagi 10-sonli qarori; ro‘yxatga olish raqami: QMD/OKBWMT № 334). Natijada o‘quvchilarni xalqaro miqyosdagi WorldSkills kasbiy tanlovlariga tizimli va kompleks tayyorlash hamda ularning maxsus kompetensiyalarini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishga erishilgan;

oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirish metodikasini KnowFlow, SkillFrame strategy, CognitiveChef approach va TaskCraft mualliflik metodlari majmuasining didaktik uyg‘unligi asosida takomillashtirishga oid takliflari asosida “Innovatsion ta’lim metodlari asosida o‘quvchilarni kasbiy tanlovlarga

tayyorlash” nomli uslubiy qo‘llanma (ISBN xalqaro standart tartib raqami 978-9910-628-17-7) hamda “Vocational excellence: a WorldSkills-based methodological guide” nomli metodlar jamlanmasi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining 009609-raqamli guvohnomasi). Natijada o‘qituvchi va murabbiylarga oshpaz kasbi bo‘yicha WorldSkills talablariga muvofiq innovatsion ta’lim metodlarining samarali qo‘llanilishini ta’minlash va o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini didaktik uyg‘unlikda kompleks shakllantirishga xizmat qilgan;

oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini WorldSkills mezonlariga muvofiq baholashga xizmat qiluvchi ontologik-kognitiv, texnologik-faoliyatli, motivatsion-raqobatbardosh va refleksiv indikatorlar majmuasini formativ-kompetensiyaviy baholash paradigmasi asosida amalga oshirishga oid takliflari asosida “ChefSkills” interaktiv mobil ilovasi yaratilgan va kasbiy ta’lim tashkilotlari amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining DGU 57828-raqamli guvohnomasi). Natijada oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini real vaqt rejimida baholash, o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda WorldSkills talablari asosida o‘zlashtirish darajasini shaffof va obyektiv tarzda aniqlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 18 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, 2 ta uslubiy qo‘llanma, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 1 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot muammosining dolzarbligi asoslab berilgan, kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini zamonaviy mehnat bozori hamda WorldSkills talablariga mos ravishda tayyorlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida shakllantirishga oid ilmiy manbalar va amaliy tajribalar tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan bo‘lib, WorldSkills talablari asosida oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvning ilmiy yangiligi, nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini belgilovchi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha metodologik yondashuvlar”** deb nomlangan bo‘lib, unda kasbiy ta’limda oshpazlik bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida

rivojlantirishga yo‘naltirilgan bir qator muhim normativ-huquqiy va o‘quv-me’yoriy hujjatlar tahlili, maxsus kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha amaldagi yondashuvlar, xorijiy tajribalar, o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda WorldSkills talablarining tahlili va bu bo‘yicha xorij olimlarining fikrlari tahlil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 158-sonli Farmonining “2025-2027-yillarda kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”ning 13-bandida “Texnikum o‘quvchilarining kasblar bo‘yicha xalqaro tanlovlarda ishtirokini ta’minlash”[9] kabi muhim vazifalarning belgilanganligi ham ushbu dolzarb muammoning hal etilishi zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa mazkur dissertatsiya tadqiqotining asosiy dolzarbligini belgilaydi.

Zamonaviy kasbiy ta’lim paradigmasi an’anaviy ta’limdan natijaviy, ya’ni kompetensiyaga asoslangan ta’limga o‘tishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda raqobatbardosh o‘quvchilarni aniqlash, ularning kasbiy motivatsiyasini oshirish va maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Kasbiy tanlovlar, xususan, WorldSkills talablari ushbu vazifani amalga oshirishda muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi.

Oshpazlik yo‘nalishida raqobatbardosh o‘quvchilarni aniqlash, ularning salohiyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish va ularni xalqaro talablarga moslashtirish pedagogik jihatdan katta muammo hisoblanadi. Mavjud kasbiy ta’lim tizimlarida o‘quvchilar bilan ishlashning samarali mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmaganligi, ko‘pincha ularning qobiliyatlari to‘liq namoyon bo‘lishiga to‘siq bo‘ladi. Shu sababli, ularning individual ehtiyojlariga mos keladigan va ularni kasbiy rivojlanishga undaydigan maxsus yondashuvlar zarur.

Maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik muammosi shundaki, amaldagi oshpaz kasbi ta’lim dasturlari ko‘pincha milliy taomlar tayyorlashga mo‘ljallangan, amaliyotda esa o‘quvchilarning aksariyati ushbu taomlarni tayyorlashni bilishadi, bu yondashuv bilan mehnat bozori talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar yetishtirib bo‘lmaydi. WorldSkills dasturlari esa nafaqat texnik mahoratni, balki tashkiliy qobiliyatlar, ijodiy yondashuv, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar (muloqot, jamoaviy ishlash, stressga chidamlilik, professional etika) ni ham qamrab oladi va turli xil xalqaro taomlarni tayyorlay olishni talab qiladi.

Ma’lumki, kasbiy kompetensiyaga bir necha ilmiy ishlarda turlicha ta’rif berilgan. Kasbiy kompetensiya (professional competence) va maxsus kompetensiya (special competence) bir-biriga bog‘liq bo‘lsa-da, ular o‘rtasida aniq farqlar mavjud. Maxsus kompetensiya kasbiy kompetensiyaning chuqurlashgan va tor yo‘naltirilgan shakli hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamisining 2026-yil 29-sentabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 526-sonli Qarorida kasbiy kompetensiyaga

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni. // https://lex.uz/docs/7166588.

quyidagicha ta’rif berilgan: “Shaxsning muayyan kasbiy faoliyatni amalga oshirishda bilim, ko‘nikma va malakalarini samarali qo‘llashi”.

Biz tahlillardan kelib chiqqan holda maxsus kompetensiyaga ishchi ta’rif berdik: *“Maxsus kompetensiya – bu kasbiy kompetensiya tarkibiga kiruvchi, muayyan kasbiy vazifa yoki texnologik jarayonni yuqori aniqlik va talablar asosida bajarishga yo‘naltirilgan ixtisoslashgan bilim, ko‘nikma va malaka majmuasi”*.

Oshpaz kasbida bu kompetensiyalar taom tayyorlashning texnik jihatlari kabi muhimdir. Ular oshxona jarayonlarini samarali boshqarish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, resurslarni optimallashtirish va jamoaviy ishlarni muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi. WorldSkills metodologiyasi esa ushbu kompetensiyalarni xalqaro miqyosda tan olingan standartlar (ISO, ISCO, ESCO, O*Net, HACCP) asosida baholaydi. Tahlillarimizga ko‘ra, WorldSkills metodologiyasining kasbiy ta’lim tizimiga ta’siri ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, o‘quvchilar motivatsiyasini oshirish, baholash tizimini takomillashtirish kabi asosiy yo‘nalishlarda pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘ladi. WorldSkills metodologiyasini milliy ta’lim dasturlariga integratsiya qilish orqali biz yuqorida keltirilgan muammolarni yetarli darajada bartaraf etib, ta’lim dasturlarni xalqaro darajaga ko‘tarishimiz mumkin.WorldSkills talablari va dasturlari asosida oshpaz kasbi bo‘yicha maxsus kompetensiyalar tarkibi va mazmunini tahlil qilganimizda, quyidagi 6 ta asosiy kompetensiyalarni ajratib oldik (1-jadval).

1-jadval

№	Maxsus kompetensiyalar	Mazmuni va asosiy talablari
1	Texnologik	Taom tayyorlashning barcha bosqichlaridagi texnik mahoratni o‘z ichiga oladi, masalan, masalliqlarni tanlash va dastlabki ishlov berish, pichoq bilan ishlash texnikasi, issiqlik ishlov berish usullari (qovurish, pishirish, dimlash va h.k.), souslar tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlarini tayyorlash va boshqalar. Ushbu kompetensiya yuqori aniqlik, tezlik va sifatni talab qiladi.
2	Innovatsion	Zamonaviy oshpazlar yangi retseptlar yaratish, taomlarni ijodiy bezash, masalliqlarni nostandart kombinatsiyalash va innovatsion pishirish texnikalarini qo‘llash. Bu esa o‘quvchilardan tanqidiy fikrlashni, muammoli vaziyatlarga original yechim topishni talab etadi.
3	Gigiyenik	Oshpaz kasbida oziq-ovqat xavfsizligi va gigiyena qoidalariga qat’iy rioya qilish eng muhim jihatlardan biridir. Bu masalliqlarni saqlash, ishlov berish va taomlarni tayyorlashdagi sanitariya normalariga rioya qilish, ish joyini toza va tartibli saqlash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.
4	Estetik	Taomlarni jozibali tarzda bezash, taqdim etish va mijozlarga vizual zavq berish malakasi. Bu ranglar uyg‘unligi, shakllar simmetriyasi va taomning umumiy kompozitsiyasini tushunishni talab qiladi.
5	Boshqaruv	Oshxona jarayonlarini samarali rejalashtirish, vaqtni boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish (masalan, mahsulot, energiya, suv), isrofgarchilikni kamaytirish va xarajatlarni nazorat qilish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.
6	Jamoaviy ishlash	Oshpazlik ishi ko‘pincha jamoada amalga oshiriladi. Shu sababli, hamkorlik qilish, kommunikatsiya, vazifalarni bo‘lishish va birgalikda yechim topish qobiliyati muhimdir. Bu esa jamoada samarali ishlash, o‘zaro yordam berish va umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qilishni talab etadi.

Masalan, oshpaz kasbining ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lishining asosiy sabablaridan biri bu amaldagi ta’lim dasturlarimizning mazmuni ko‘proq milliy taomlarga urg‘u berilganligida va bu esa o‘quvchini faqatgina kichik ovqatlanish korxonlarida ishlash komptensiyalarini shakllantiradi. Ushbu muammoni yechish uchun hamda o‘quvchi nafaqat ichki, balki tashqi mehnat bozorida ham ishlay olishlari uchun biz WorldSkills talablari asosida ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavjud ta’lim dasturlari ko‘pincha WorldSkills standartlarining yuqori va doimiy yangilanib turuvchi talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Bu nomuvofiqlik kasbiy ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni to‘liq joriy etishda sezilarli to‘siqlarni yuzaga keltiradi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun faqatgina ma’muriy choralar yetarli emas. Ta’lim jarayoniga yangi pedagogik yondashuvlar, o‘qitish metodlari, baholash mezonlari va tashkiliy shakllarni joriy etish zarur. Bu esa kasbiy ta’lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirishni, mavjud adabiyotlarni chuqur tahlil qilishni va yangi metodologik yechimlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Mazkur tadqiqot aynan shu dolzarb pedagogik muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, oshpaz kasbi o‘quvchilarining maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish orqali mamlakatimizda kasbiy ta’lim sifatini oshirishga va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga o‘z hissasini qo‘shadi.


Ushbu bobda o‘quvchilarning oshpaz kasbi bo‘yicha maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda WorldSkills talablarining pedagogik ahamiyati har tomonlama tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kasbiy tanlovlar ta’lim jarayonida faqatgina natijalarni baholovchi vosita emas, balki chuqur pedagogik salohiyatga ega bo‘lgan didaktik vosita hisoblanadi. Ular o‘quvchilarda ichki va tashqi motivatsiyani uyg‘otishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi, o‘z qobiliyatlarini namoyon etishga, shaxsiy yutuqlarga erishishga va kasbiy o‘sishga intilishga undaydi. Shuningdek, WorldSkills talablari asosida oshpaz kasbi ta’lim dasturlarini doimiy yangilab borish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish dolzarb vazifa ekanligi asoslangan.

Dissertatsiya ishimizning ikkinchi bobi “**Kasbiy ta’lim tashkilotlarida oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda o‘quvchilarning oshpaz kasbi bo‘yicha maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirish bo‘yicha yondashuvlar, tamoyillar va metodik rivojlantirish modeli, WorldSkillsning oshpaz kasbi bo‘yicha texnik tavsifnomasi (Technical Description of Cooking) asosida metodika to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

An’anaviy ta’lim usullari ko‘pincha nazariy bilimlarni berishga qaratilganligi amaliy va xalqaro raqobatbardoshlik uchun zarur bo‘lgan maxsus kompetensiyalarni shakllantirishda yetarli emas. Aynan shu nuqtada, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondiradigan, ularni kasbiy rivojlanishga undaydigan va xalqaro standartlarga moslashtiradigan yangi metodikaga ehtiyoj seziladi. Mazkur metodikaning ilmiy yangiligi, uning “KnowFlow”, “SkillFrame strategy”, “CognitiveChef approach”, “TaskCraft” kabi metodlarni o‘z ichiga olganligida va bu

metodlarning o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

Metodlar o‘zaro mantiqiy bog‘langan bo‘lib, har biri “nimani bilish, qanday bajarish, qanday fikrlash va qanday sinalish kerak” degan savollardan biriga javob beradi hamda maxsus kompetensiyaning muayyan komponentini rivojlantiradi (1-rasm).



1-rasm. WorldSkills talablari asosida ishlab chiqilgan mualliflik metodlari

Pedagogikada har qanday tizim, shu jumladan, metodika ham, o‘zining tashkiliy tuzilishiga ega bo‘lib, uning asosiy tarkibiy qismlari komponentlar deb ataladi. Komponent bu pedagogik tizimning nisbatan mustaqil, ammo o‘zaro bog‘liq qismi yoki elementi sifatida tushuniladi va har bir komponent tizimning umumiy maqsadiga erishishi uchun o‘ziga xos vazifani bajaradi. Mexanizm esa pedagogik tizim komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni, ularning dinamik o‘zaro ta’sirini va tizimning ishlash prinsiplarini ifodalovchi tushuncha sifatida belgilaydi (2-jadval).

Tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan metodika quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topgan:

2-jadval

Komponent nomi	**Vazifasi**	**Asosiy yo‘nalishlari**
Maqsadli komponent	O‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy maqsadlari va vazifalarini belgilash	Maqsadlarni davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, mehnat bozori ehtiyojlari asosida belgilash
Mazmunli komponent	O‘quv dasturlari va o‘quv materiallarining tarkibini belgilash	WorldSkills standartlariga mos o‘quv rejalarini ishlab chiqish, amaliy ko‘nikmalarga e’tibor qaratish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi materiallarni kiritish
Tashkiliy-metodik komponent	Ta’lim jarayonini tashkil etish shakllari, usullari va didaktik vositalarini tanlash	Innovatsion ta’lim texnologiyalari, kasbiy tanlovlar, modullarga asoslangan ta’lim
Nazorat-baholash komponenti	O‘quvchilarning kompetensiyalarini baholash tizimini ishlab chiqish va joriy etish	WorldSkills talablari asosida baholash, amaliy topshiriqlar, real sharoitlarga yaqin sinovlar, diagnostika bosqichlari
Natijaviy komponent	Metodikani qo‘llashdan kutilgan natijalarni aniqlash va tahlil qilish	Yuqori malakali, xalqaro raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, kasbiy motivatsiyani oshirish, amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash

“KnowFlow” metodi. KnowFlow – bu o‘quv materialini WorldSkillsning oshpaz kasbi texnik tavsifnomasi (Technical Description of Cooking) hujjatidagi modullar ketma-ketligiga muvofiq yagona “bilim oqimi” sifatida tashkil etish metodi. “Know” – bilish, “Flow” – ketma-ketlik, oqim degan ma’noni anglatadi. U texnologiya, gigiyena, mehnat xavfsizligi va sifat standartlari bo‘yicha bilimlar tizimini shakllantirib, ontologik-kognitiv komponentni rivojlantiradi.

“SkillFrame” strategy metodi. SkillFrame strategy – bu har bir kasbiy ko‘nikmani aniq “ramka”ga solish strategiyasi hamda ushbu metodni amalga oshirishda bajariladigan amallar ketma-ketligi, sifat me’yori va vaqt chegarasi belgilanadi, ko‘nikma “namuna – birgalikda bajarish – mustaqil bajarish” tartibida o‘zlashtiriladi. “Skill” – ko‘nikma, mahorat, “Frame” – ramka degan ma’noni anglatadi. Metod texnologik-faoliyatli komponentni rivojlantiradi.

“CognitiveChef approach” metodi. CognitiveChef approach - oshpazlik faoliyatiga xos fikrlash va boshqaruv ko‘nikmalarini (ishni rejalashtirish, muammoli vaziyatda qaror qabul qilish, vaqtni boshqarish, o‘z ishi va taom sifatini tanqidiy baholash) shakllantirishga yo‘naltirilgan yondashuv. “Cognitive” - lotincha cognitio - bilish, idrok etish, tushunish, “Chef” – oshpaz, “Approach” - yondashuv, usul, yaqinlashish yoki murojaat qilish kabi ma’nolarni anglatadi. U refleksiv komponentni rivojlantiradi.

“TaskCraft” metodi. TaskCraft - WorldSkills formatidagi, vaqt bilan cheklangan amaliy topshiriqlarni tuzish va ularni obyektiv, subyektiv va amalga oshirish va ijro etish mezonlari bo‘yicha baholash metodi. Musobaqaviy muhit o‘quvchining ichki kasbiy motivatsiyasini oshirib, motivatsion-raqobatbardosh komponentni

rivojlantiradi.

Metodlar ketma-ket qo‘llanilib, natijalar WorldSkills mezonlariga asoslangan integratsiyalashgan baholash natijasi “Integrated WS assessment outcome” asosida umumlashtiriladi, baholash natijalari esa keyingi sikl uchun teskari aloqa vazifasini bajaradi.

Ishlab chiqilgan tuzilmaviy model (2-rasm) maqsad, mazmun, texnologik va baholash komponentlarining o‘zaro bog‘liq tizimidan iborat. Uning maqsadi oshpaz kasbi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilar maxsus kompetensiyalarini WorldSkills talablari asosida rivojlantirish, kutilayotgan natijasi esa raqobatbardosh kasb egasini tayyorlashdir.


Mazmunli komponent modelning nazariy-metodologik asosini belgilaydi. U WorldSkills talablari (assessment for skills, practice-oriented learning, industry-relevant tasks), hisobga olinadigan shartlar (o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, milliy oshpazlik xususiyatlari, moddiy-texnik baza, xalqaro tajribalar), tamoyillar (kompetensiyaviylik, amaliy va shaxsga yo‘naltirilganlik, innovatsionlik, moslashuvchanlik) hamda yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Yondashuvlardan sinergetik yondashuv nazariya va amaliyot uyg‘unligini, motivatsion-akmeologik yondashuv esa o‘quvchining yuqori kasbiy cho‘qqiga intilishini ta’minlaydi.

Texnologik komponent mazmunni amaliyotga tatbiq etadi. Uning tarkibiy tuzilmasi nazariy, amaliy va refleksiv bloklardan iborat. O‘qitish to‘rt bosqichda (kognitiv, faoliyatli, tanloviy, refleksiv) amalga oshiriladi. Bunda “KnowFlow”, “SkillFrame strategy”, “CognitiveChef approach” va “TaskCraft” metodlari, mos ta’lim shakllari hamda didaktik vositalar qo‘llanadi. Natijada oltita maxsus kompetensiya rivojlantiriladi - texnologik, innovatsion, gigiyenik va xavfsizlik, estetik, boshqaruv va servis hamda jamoaviy ish kompetensiyalari.

Baholash komponenti WorldSkills mezonlari (Objective, Subjective, Performance criteria) bilan pedagogik mezonlarning (ontologik-kognitiv, texnologik-faoliyatli, motivatsion-raqobatbardosh, refleksiv) uyg‘unligiga asoslanadi va kompetensiyalarning o‘zlashtirilishini uch darajada (past, o‘rta, yuqori) aniqlaydi. Baholash natijalari teskari aloqa orqali mazmun va texnologiyani takomillashtirishga xizmat qiladi, modelning yakuniy natijasi esa raqobatbardosh oshpazdir.

Modelda foydalanilgan WorldSkills baholash mezonlari asosan uch turga bo‘linadi - subyektiv (subjective criteria), obyektiv (objective criteria), samaradorlikka asoslangan (performance criteria). Obyektiv baholash – bu aniq o‘lchovlar, tekshirishlar va tasdiqlangan faktlar asosida amalga oshiriladigan baholash turidir. Subyektiv baholash, asosan, ustozlarning professional tajribasi, estetik didi va kasbiy nuqtai nazari asosida amalga oshiriladi. Bu turdagi baholashda ijodiy yondashuv, did va estetik xususiyatlar muhim rol o‘ynaydi. Subyektiv baholash ishtirokchining ish jarayoniga yondashuvi, dizayn, muomala, kreativlik, taomning ta’mi va taqdimot estetikasi kabi sifat ko‘rsatkichlarini qamrab oladi. Samaradorlikka asoslangan baholash ishtirokchining haqiqiy yoki simulyatsiya qilingan ish sharoitlarida amaliy ko‘nikmalarni qanday qo‘llay olishini aniqlaydi. Bu baholashda nafaqat yakuniy mahsulot, balki jarayonning o‘zi ham diqqat markazida bo‘ladi.

Ushbu model quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:



2-rasm. Raqobatbardosh oshpaz tayyorlashning tuzilmaviy modeli

